



RAQAMLI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNING MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Abdullayeva Irodaxon Xusniddin qizi
AIFU iqtisod yo'nalishi 1-kurs magistri

Annotatsiya. *Ushbu tezisdan raqamli bank xizmatlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani oddiy va tushunarli tarzda ko'rib chiqildi. Mobil banking, onlayn to'lovlar, elektron hamyonlar va fintech ilovalari bugungi kunda odamlarning pul bilan munosabatini butunlay o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat qulaylik yaratib qolmay, balki kichik biznesni oyoqqa turg'azish, qishloq joylarda yashovchilarga moliya xizmatlarini yetkazish va umumiy iqtisodiy faollikni oshirishga ham yordam bermoqda. O'zbekistonda so'nggi 5–6 yil ichida bu soha juda tez rivojlandi: odamlar endi uyidan chiqmasdan to'lov qiladi, kredit oladi, pul o'tkazadi. Bu jarayon nafaqat shaharlarda, balki qishloqlarda ham sezilarli bo'ldi. Natijada ko'pchilik odamlar birinchi marta o'z hisoblarini ochdi, kichik tadbirkorlar esa mijozlar sonini oshirdi va daromadini ko'paytirdi. Raqamli xizmatlar pulni "ko'rinmas" qilish orqali soya iqtisodiyotini qisqartirishga ham yordam berdi. Tezida bu jarayonning ijobiy tomonlari bilan birga, hali hal qilinmagan muammolar – masalan, internet sifati, kiberxavfsizlik va odamlarning raqamli dunyoga ishonchi – ham ochiqchasi muhokama qilindi. Xalqaro tajribadan misollar keltirilib, O'zbekiston uchun qaysi yo'llar samaraliroq bo'lishi mumkinligi haqida takliflar berib o'tildi.*

Kalit so'zlar. *raqamli bank, mobil banking, fintech, moliyaviy inklyuziya, elektron to'lov, kichik biznes, raqamli transformatsiya, O'zbekiston iqtisodiyoti, naqdsiz to'lovlar*

Kirish. Bugun deyarli har bir odam telefonida bank ilovasi bor. Bu ilova orqali kommunal to'lov, do'kondan xarid, oilaga pul jo'natish – hammasi bir necha soniya ichida amalga oshadi. Bu holatni o'n yil oldin tasavvur qilish qiyin edi. O'zbekistonda esa bu o'zgarish juda tez sodir bo'ldi. Raqamli bank xizmatlari nafaqat qulaylik, balki iqtisodiyot uchun yangi imkoniyatlar ham yaratmoqda. Kimdir birinchi marta o'z hisobini ochdi, kimdir telefon orqali kredit oldi, kimdir qishloqda yashab turib onlayn savdo qila boshladi. Bu jarayon faqat shaxsiy hayotni osonlashtirib qolmay, butun mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltirmoqda. Tadqiqot ishining asosiy savoli shudan iboratki, raqamli bank xizmatlari O'zbekiston iqtisodiyotini qanchalik o'zgartirdi va kelajakda qanday yo'nalishda rivojlanishi mumkin? Bu savolga javob berish uchun raqamlardan ko'ra, odamlar hayotidagi real o'zgarishlarga, kichik biznes egalarining tajribasiga va xalqaro misollarga ko'proq e'tibor qaratildi.



Asosiy qism. Hozirgi kunda deyarli barcha xizmatlar online formatda tashkil etilmoqda. Bu barcha uchun katta qulayliklarni taratib bermoqda. Endi ko'pchilik odamlar to'lovlar, kommunal xizmatlar va boshqa ko'plab xizmatlar uchun bankka borishga ehtiyoj yo'q. Barcha xizmatlar inline holda ilovalar ichida mavjud. Bu ayniqsa yoshlar va o'rta yoshdagilar uchun odatiy holga aylandi. Chekka hududlarda yashovchi aholi ham endi telefon orqali bolalariga pul jo'natib, o'z xarajatlarini boshqara oladi. Bu jarayonning eng muhim natijasi – odamlarning moliyaviy imkoniyatlari kengaydi. Avval bank hisobi ochish uchun shaharga borish kerak bo'lsa, endi barchasi telefon orqali amalga oshadi. Natijada ko'p odamlar birinchi marta o'z pullarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, kichik do'kon egalari, uyda non pishiruvchi ayollar, onlayn savdo qiluvchi yoshlar – ularning hammasi raqamli to'lovlar tufayli mijozlar sonini oshirdi. Avval naqd pul bilan ishlagan tadbirkorlar endi mijozlarning kartadan to'lashini qabul qiladi. Bu esa savdoni tezlashtirdi va xavfsizroq qildi. Ko'p tadbirkorlar aytishicha: "Ilgari mijozlar pul yo'qligi uchun xarid qilmasdi. Endi telefonida pul bor bo'lsa, darhol sotib oladi". Shu sababli ko'plab kichik bizneslar daromadini sezilarli darajada oshirdi va yangi mijozlarga erishdi. Raqamli to'lovlar pulning qayerdan kelib, qayerga ketayotganini ko'rinadigan qiladi. Bu davlat uchun ham, odamlar uchun ham foydali. Davlat soliq tushumlarini osonroq yig'a boshladi, bizneslar esa o'z daromadlarini ochiqroq ko'rsata oldi. Natijada iqtisodiyotning "ko'rinmaydigan" qismi asta-sekin qisqarishiga olib kelmoqda. Avval moliyaviy xizmatlar asosan shaharlarda bo'lsa, endi qishloqlarda ham odamlar telefon orqali banking qilmoqda. Bu joylarda yashovchi odamlar uchun katta qulaylik. Masalan, fermer o'z hosilini sotib, pulni darhol telefoniga oladi va shu pul bilan yangi urug', o'g'it sotib oladi – hammasi bir kunda. Xalqaro tajribalarga ko'ra, Hindistonda UPI tizimi oddiy odamlarning hayotini o'zgartirdi – millionlab kichik savdogarlar endi telefon orqali to'lov qabul qiladi. Keniyada M-Pesa qishloq aholisiga bank xizmatlarini yetkazdi. Xattoki, Xitoyda WeChat Pay va Alipay orqali deyarli hamma narsa naqdsiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston ham bu yo'nalishda o'z yo'lini topmoqda. Misol sifatida ayta olamizki, CLICK, Payme, Uzum kabi ilovalar allaqachon millionlab odamlar hayotining bir qismiga aylandi. Albatta, hammasi mukammal emas. Bir qancha muammolar ham mavjud. Internet sifati yomon joylarda ilovalar sekin ishlaydi. Ba'zi odamlar hali ham raqamli xizmatlarga to'liq ishonmaydi. Kiberhujumlar soni oshayotgani ham xavotirli.

Xulosa. Xulosa qib ayta olamizki, hozirda raqamli bank xizmatlari O'zbekiston iqtisodiyotini sekin, lekin barqaror sur'atda o'zgartirmoqda. Bu jarayon odamlar hayotini qulaylashtirib, kichik bizneslarning rivojiga yo'l ochib bermoqda, pul o'tkazmalarini shaffof qilmoqda va qishloq-shahar tafovutini kamaytirmoqda. Eng muhimi – bu o'zgarishlar endi qaytib bo'lmaydigan nuqtaga yetib keldi. Odamlar raqamli to'lovlarga o'rganib bo'ldi va endi undan voz kechishni xohlamaydi. Kelajakda bu soha yanada rivojlansa, O'zbekiston iqtisodiyoti yanada harakatli, shaffof va har bir



fuqaroga ochiq bo‘ladi. Asosiy vazifa – texnologiyani odamlar uchun yanada sodda va xavfsiz qilish, qishloqlarda internetni yaxshilash va kekxa avlodga raqamli dunyoni o‘rgatish. Shu yo‘nalishda qilingan har bir qadam mamlakatning umumiy farovonligiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-60-son. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 5-oktabr, 2020 yil. Manba: lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-5992-son. “2020–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”. 12-may, 2020 yil. Manba: lex.uz / president.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki “O‘zbekiston Respublikasida naqdsiz to‘lovlar tizimining rivojlanishi” (yillik hisobotlar, 2021–2025). Manba: cbu.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur” (2022–2026). Manba: imv.uz
5. Abdurahmonov O., Xo‘jayev Sh. “Raqamli moliya xizmatlari va moliyaviy inklyuziya: O‘zbekiston tajribasi”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2024, №3. Toshkent: TDIU nashriyoti.
6. Kadirov B. “Fintech va raqamli bankingning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni”. Moliya va bank ishi jurnali, 2025, №1–2.
7. International Monetary Fund (IMF) Khera P., Ngirandi J., Saxena A., Alonso C. “Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth?” IMF Working Paper, WP/21/167, 2021.

